XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 16-dekabr VII-15-163-1-19-K/25 Bo‘ston tumani

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yil uchun Bo‘ston tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-013-1-19-K/24-sonli qarori ijrosi jarayonida tuman mahalliy budjetiga kiritilgan o‘zgarishlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-va 147-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi PF-5283-sonli “Mahalliy davlat hokimyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Bo‘ston tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari R.Ashur-oxunovning Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yil uchun Bo‘ston tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-013-1-19-K/24-sonli qarori ijrosi jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevral kungi "Hududlarda 2025-yilda tejamkorlik va barqarorlikni ta’minlash tamoyili asosida budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish va samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi 03-03/1-4456-raqamli 6-son bayoni, O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi PQ-455-sonli qarori, ijtimoiy soha obyektlari isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish bo‘yicha 2020-yil 29-dekabrda 45-2020-son Davlat-xususiy sheriklik bitimiga 2024-yil 6-avgust kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligida 45/1-2020-reyestr raqami bilan ro‘yhatga olingan 1-sonli qo‘shimcha kelishuv, homiladorlik va kasallik varaqalari, kommunal to‘lovlar, harajatlarni maqbullashtirish, ish haqi miqdorining oshirilishi va boshqa harajatlar bo‘yicha 2025-yil davomida kiritilgan o‘zgarishlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Budjet Kodeksining 27-va 147-moddalariga asosan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning aniqlangan miqdorlariga 2025-yil davomida kiritilgan o‘zgarishlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xususiy sherik “Ziyo 2002-MX” MCHJ tomonidan 2025-yil 1-noyabr kuni Davlat sherigi Bo‘ston tumani hokimligi va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga yozgan 14-sonli xatiga asosan Bitim bo‘yicha 15-noyabrdan 15-martgacha, ya’ni 120 kun issiqlik energiyasi bilan ta’minlash belgilanganligi, lekin maktabgacha ta’lim tashkilotlari va tibbiyot birlashmasida 1-noyabrdan 15 kunlik qo‘shimcha issiqlik energiyasi bilan ta’minlash zarurati tug‘ilganligi va buning hisobiga 304 594,0 ming so‘mlik *(tibbiyot birlashmasiga 84 277,0 ming so‘m, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 220 317,0 ming so‘m)* qo‘shimcha xizmatlar amalga oshirilishi va ushbu mablag‘lar budjet tashkilotlarining budjet parametrlari hisobidan to‘lab berilishi inobatga olinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta’milash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Gaziyevga, nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi (Sh.Mamarizayev) hamda kotibiyat mudiri J.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **NOSIROVA SANABARXON ABDINABIYEVNA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2025-yil 16-dekabrdagi
VII-15-163-1-19-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yil uchun Bo‘ston tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘rg‘risida”gi VII-3-013-1-19-K/24-sonli qarori ijrosi jarayonida 2025-yil davomida kiritilgan o‘zgarishlar hisobi

Ming so‘mda

№	Tashkilot nomi	Tasdiqlangan reja	Shundan	Aniqlangan reja
			Kiritilgan o‘zgarishlar	
1	Axborot kutubxona markazi	774 946	113 528	888 474
2	Bolalar o‘smirlar sport maktabi	5 582 354	555 412	6 137 766
3	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 056 924	371 996	1 428 920
4	Davlat soliq inspeksiyasi	0	279 444	279 444
5	Yoshlar ishlari agentligi	3 060 919	10 695	3 071 614
6	Zaxira jamg‘armasi	1 163 826	0	1 163 826
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 297 606	276 128	2 573 734
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 798 844	20 042	1 818 886
9	Madaniyat markazi	732 624	78 884	811 508
10	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (nodavlat MTTlarga subsidiya hisobi bilan)	32 388 544	7 818 247	40 206 791
11	Mahalla uyushmasi	923 000	0	923 000
12	Musiqa maktabi	2 157 316	233 782	2 391 098
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	17 615 188	549 862	18 165 050
14	Suv yetkazib berish xizmati DM	1 622 736	240 000	1 862 736
15	Tuman hokimligi	6 335 671	2 947 576	9 283 247
16	Fermer xo‘jaliklari xisobxonasi	360 524	13 185	373 709
17	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	21 119 150	0	21 119 150

18	Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi kotibiyati	264 124	-146 571	117 553
Jami		**99 254 296**	**13 362 209**	**112 616 505**